Buxoro viloyati florasi kadastri (monografiya) nashr etildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan Buxoro viloyati o’simliklar kadastri monografiyasi nashr etildi. Monografiyada Buxoro viloyati florasida tarqalgan 67 oila, 340 turkumga mansub 765 turdagi yuksak o’simliklar kadastr ro’yxati, kamyob va yo’qolish xavfi ostidagi o’simliklarning hayotiy shakli, ekologiyasi, tarqalishi, xo’jalikdagi ahamiyati, muhofazaga ehtiyoj ko’rsatkichi geoaxborot tizimidagi (GAT) xaritalari hamda rangli fotosuratlari keltirilgan.

Institut olimlari tomonidan 2017-yildan 2020-yilga qadar Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari florsining to’liq davlat kadastriga olingan yuksak o’simliklar ro’yxati, noyob va yo’qolib borayotgan turlarning kadastri va monitoringi amalga oshirildi. 2020-yil iyul oyidan boshlab esa Toshkent viloyatining o’simliklar kadastri amalga oshirilmoqda.

Ushbu nashr etilgan monografiyalar botaniklar, ekologlar, tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi, o’rmon xo’jaligi qo’mitasi, qo’riqxonalar, milliy tabiat bog’lar xodimlari, professor o’qituvchilar, talabalar, ekoturistlar hamda o’simlik olami bilan qiziquvchilar uchun amaliyotda foydalanishlari uchun mo’ljallangan.